

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY
MARKAZI**

**O'QUVCHI YOSHLARGA AXBOROT XURUJLARI TUSHUNCHASINI
MAZMUN-MOHIYATINI O'RGATISH MASALALARI**

(umumiy o'rta ta'lim maktablari tarbiya fani o'qituvchilari uchun
mo'ljallangan uslubiy ko'rsatma)

Samarqand-2020

J.Oripov. O'quvchi yoshlarga axborot xurujlari tushunchasini mazmun-mohiyatini o'rgatish masalalari. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari uchun mo'ljallangan uslubiy ko'rsatma. -Samarqand, 2020, 24 bet.

Taqrizchilar:

A. Samadov –SamDU dotsenti

D. Kushanova – Sam VXTXQTMOHM
o'qituvchisi

Ushbu uslubiy ko'rsatmada o'quvchi yoshlarga axborot xurujlari tushunchasini mazmun-mohiyatini o'rgatish, axborot xurujlarining vujudga keltiruvchi manbalar, axborot xurujlarini uyishtirishdan ko'zlanayotgan maqsad hamda o'quvchi yoshlarda tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirishning ahamiyati masalalari nazariy asosda yoritib berilgan.

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengash yig'ilishining navbatdagi 2020-yil 26-dekabrda 4-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

KIRISH

Internetning ixtiro etilishi, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari beqiyos darajada kengayishi bilan bir qatorda axborot, g'oya va mafkuralarni singdirishning ta'sirchan vositasiga aylandi. Aniqroq aytganda, raqib sanalgan davlat yoki xalqlarga nisbatan yolg'on axborot negizida shakllangan g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish asosida ularni obro'sizlantirish, ideallaridan adashtirish, qadriyatlaridan begonallashtirish, kelajagiga nisbatan ishonsizlik uyg'otish va boshqa yolg'on axborot bilan o'z izmlariga solishga qaratilgan strategik maqsadlarda foydalanmoqdalar. Darhaqiqat, har qanday g'oya yoki mafkura axborot negizida shakllanishini unutmashimiz lozim. Mazkur jarayon ijtimoiy fanlarda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy muloqotda "axborot tahdidi", "axborot xuruji" nomlari bilan izohlanayotgan tahdidlarning yana bir yangi turini vujudga kelganligidan dalolat bermoqda.

Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining asosiy belgilari axborot texnologiyalarining takomillashish jarayoni bo'lib, bunda yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga keng va faol kirib bormoqda. Ammo, masalaning ikkinchi xatarli tomoni shundaki, bunday texnologiyalardan foydalanib o'zlarining g'arazli va g'ayriqonuniy axborotlarini tarqatuvchi guruhlar ko'payib borayotganligi bizni tashvishga solmoqda. Mazkur guruhlar tomonidan uyushtirilayotgan "axborot tahdidi" va "axborot xuruj"larini ma'zmun-mohiyatini, ularning axloqiy-estetik tarbiyaga ta'siri masalasini aniq faktlar asosida nazariy metodologik asoslarini yaratish faylasuf-olimlarni qiziqtirgan mavzulardan biri sifatida siyosiy, huquqiy, ilmiy-falsafiy jihatlarini nazariy asoslab berish masalasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xo'sh, axborot tahdidi va axborot xurujlarining insoniyat, jamiyat va davlatlarning ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siri qanday? Nima uchun bundan xavotirga tushmoqdamiz? Axborot tahdidi va axborot xurujlarining ma'zmun-mohiyatini va ularning ob'ektini tadqiq qilishning ahamiyati qanday? Axborot tahdidi va axborot xurujlarining axloqiy va estetik tarbiyaga ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Albatta, bu savollarning javobini topish, konkret va fundamental metodologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir. Masalaning murakkabligi shundaki, yoshlarning ongini egallashga qaratilgan axborot

tahdidi va axborot xurujlarining mohiyatini, manbalarini, vositalari va ularning rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan chuqur tahlillar bilan o'rganishni ta'lab etadi. Tahlil qilish va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tafovut bo'lmasligi uchun tushunchalarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada, yoshlarning ongini egallashga qaratilgan axborot tahdidi va axborot xurujlarining mohiyati, manbalari, vositalari va yoshlar ongiga ta'ri borasidagi fikrlar nazariy asosda yoritilib, tavsiyalar berilgan.

O'QUVCHI YOSHLARGA AXBOROT XURUJLARI TUSHUNCHASINI MAZMUN-MOHİYATINI O'RGATISH MASALALARI

Har bir inson ongi shakllanib, atrof-olam, voqelikka nisbatan o'z qarashlarini, fikr-mulohazalarini, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasida bildirib, ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zini qiziqtirgan tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashga harakat qiladi, mushohada yurtadi, uni tahlil etadi. Natijada mazkur mushohada va tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosalariga ega bo'ladi, u yoki bu darajada nuqtai nazarilarini shakllantiradi. Jumladan, bugungi axborot asrida "axborot tahdidi" va "axborot xuruji"lari kabi tushunchalarni ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etish, ularning mohiyatini ochib berish masalasi ijtimoiy fanlar doirasida, u yoki bu darajada nuqtai nazarlarni shakllanishi, muhokama hamda mushohadalar yuritishning dolzarb mavzusiga aylanmoqda.

Bugungi kunda dunyoda globallashtirish jarayonlari kuchayib, yer kurrasidagi tinchlik va barqarorlikka qarshi tahdidlarning yangi turlari ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyatlarni ijtimoiy-falsafiy fanlar doirasida muammo sifatida tadqiq etish hamda ularning mohiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, insoniyat fan-texnika taraqqiy etayotgan, axborot texnologiyalarining takomillashib borayotgan, ijtimoiy hayotning turli sohalarida keng imkoniyatlarni vujudga keltirayotgan, o'zining ijobiy va salbiy jihatlari bilan murakkablik kasb etayotgan global axborotlashuv davrini boshidan kechirmoqda. Bu davrning xarakterli jihati shundaki, axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayoning tig'izlashuvi natijada dunyo axborot makoni ("Information Space")ga aylanib qolganligidir.

"Kun.uz" saytida keltirilishicha o'rtacha 2019-yilda: "100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar soni 160 ta, komp'yutrlar soni 55 tani tashkil etadi.

Shuningdek, kuzatuvchilar natijasiga ko'ra, 100 ta uy xo'jaligidagi aholiga 282 ta telefon apparati to'g'ri keladi"¹. Ushbu statistik ma'lumotlarga tayanib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy makonda kishilar o'rtasi axborot almashish muhitini qamrovini kengayishida muhim bo'lgan

¹ Kun.uz sayti ma'lumoti asosida. 2020-yil 18-sentabr.

vositalar: televizor, komp'yuter va telefon apparatlariga nisbatan xarid qobiliyatlarining ortib borishi bilan izohlash mumkin.

Bugun kim axborotni izlab topish va uni yaratish, tarqatish kabi mavjud imkoniyatlarga ega bo'lsa, u dunyoga ham egalik qiladi, degan oddiy haqiqatni yodimizdan chiqarmasligimiz va uning mohiyatini anglab yetishimiz zarur. Bunday zarurat axborotdan ijobiy emas balki, ko'proq salbiy maqsadlarda foydalanishga yo'naltirilayotganligi natijasida yuzaga kelmoqda. Axborotga egalik qilish, uni yaratib tarqatish ya'ni axborot sohasida gegomonlikni qo'lga kiritishga urinayitgan ayrim shaxslar, guruhlar hatto xalqaro tashkilotlarning teng huquqli sub'ektlari bo'lgan ayrim mamlakatlar ham o'zlarining g'arazli va qabih maqsadlariga erishishning muhim vositasi sifatida axborotdan foydalanayotganligi real haqiqatdir.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongini egallashga qaratilgan "axborot tahdidi" va "axborot xuruj"larining mazmun-mohiyati, manbalari va ularning rivojlanishiga ta'sir etayotgan omillarni ilmiy-falsafiy tahlillar asosida ochib berish lozim. Tahlilimizda ikkilanish yoki xatoliklar bo'lmasligi uchun, axborot tahdidi va axborot xurujlari atributlarining bir-biri bilan bog'liq umumiy hamda universal aloqadorliklarini ifodalaydigan jihatlarini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bir so'z bilan aytganda, bunday tahdidlarning parametrlarini asosiy metaforasini o'rganish, ko'rib chiqilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini aniqlash va uning ta'rifini ishlab chiqishga imkon beradi.

Z.M.Marufov tahriri ostida chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Tahdid [a] kt. 1. Qo'rqituv, do'q, po'pisa.

2. Biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi; xatar, xavf",²-degan ta'rifdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, axborot tahdidi – bu muayyan bir guruh, jamiyat, davlat va mamlakatlarning o'z muholiflarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotini izdan chiqarish va diniy-axloqiy tamoyillaridan begonallashtirishga qaratilgan xavf-xatarlarni sodir etish bilan do'q-po'pisa qilish, qo'rqitish maqsadini ko'zda tutuvchi informatsiyalar majmuidir. Shu alohida ta'kidlash lozimki, axborot tahdidining negizini jamiyatda muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat va elatlar, xalqlarning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan urf-odatlarini,

² Z.M.Marufov ta'xiri ostida . Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: "Рус тили" нашрети, 1981. 149- б.

an'ana va qadriyatlari, milliy etiket tamoyillarini buzishga qaratilgan negativ informatsiyalardan iborat xurujlar majmui tashkil etadi.

Darhaqiqat, internet jamiyatning turli jabhalariga shu qadar tezlik bilan kirib keldi va insoniyatga mislsiz imkoniyatlarni yaratib berdi. Bundan tashqari kishilik jamiyati taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan o'z imkoniyatini ham kengaytirib bordi. Ammo, har qanday ixtorolardan inson barcha davrlardagi kabi internetdan ijobiy va salbiy maqsadlarda foydalanish ham urfga aylana boshladi. Aniqroq aytganda, kimlardir dunyoda gegemonlik qilish maqsadida mafkuraviy, g'oyaviy, informatsion ta'sir vositasi sifatida foydalanib axborot tahdidlarini uyushtirilayotganligi muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda.

Tarmoqda inson omili ta'sirida insoniyatga qarshi qaratilgan turli tajovuzlarni sanab ulgurmasimizdan, yangisiga duch kelmoqdamiz. Mohiyatan olib qaraganda bu tajavuzlarning turfa xilligi shundaki, giyohvand moddalar targ'iboti, irqiy, diniy murosasizlikni vujudga keltirish, zo'ravonlik, terrorchilikka undovchi resurlar bilan ma'naviy, milliy, umuminsoniy tamoyillar, an'analar va axloqiy tamoyillarga qarshi qaratilgan tajovuzkor axborot xurujlarini o'zida mujassam etuvchi elementlarning ko'pligidir. Mazkur jarayon tarmoqdan foydalanuvchilarda axborotning qaysi joiz yoki qaysi nojoiz ekanini farqlashda mukammallik va mavhumlikni yuzaga keltirmoqda. Mohiyatni tushunishdagi bunday abstraktlik axborotning agressivligini oshirishga va ta'sir doirasini kengayishiga xizmat qilayotganligi, umumiy qilib aytganda axborot xurujlarining vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Afsuski, axborotning asl mohiyatini anglab yetilmaslik, faktlar yuksak intellektual salohiyat, tafakkur doirasidagi tahlillarning yo'qligi, qo'shimcha ma'nalarga murojaat qilishdagi sustkaslik va masalaga algaritmik yondashuvni inkor etilishi axborot hamlasining kuchayishi va avjiga chiqishida qo'l kelmoqda, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Xullas, "axborot tahdidi" tushunchasining boshlang'ich davri, tub mohiyati, qamrovi va ta'sir doirasi, yo'nalishlari borasida turli qarashlarning mavjudligi, mualliflarning qarashlaridagi tafavvutlar ham turlicha ekanligi, masalaning chuqur munozara qilish, "axborot xuruji" bilan bog'liqliq yoki farqli jihatlarini, insoniyat tamadduniga ta'sirini ilmiy mushohadalar bilan asoslashga harakat qilamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Xuruj [a] 1. To'satdan hujum qilish;

hujum.

2.ko'chma Issiq, sovuq, shamol, yomg'ir, o't, suv kabi tabiat kuchlarining inson irodasiga nisbatan qarshiligi, hamlasi; avjiga chiqish, kuchayish",³-deb izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, axborot xuruji jamiyatda mavjud qarashlarga zid g'oyalarni muayyan bir millat yoki elat tanlamasdan inson ongiga qaratilgan vayronkor g'oya va mafkuralar asosiga qurilgan information xurujlarni tushunish mumkin.

Avvalo, shuni takidlashimiz lozimki, xuruj, birinchidan, to'satdan hujum qilish, hujum, ikkinchidan, tabiat kuchlarining inson irodasiga nisbatan qarshiligi, hamlasining avjiga chiqishi, kuchayishi kabi holatlar nazarda tutilgan. Agar masalaga ob'yektiv nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, axborot xurujlari negizida hujum va inson irodasiga qarshi qaratilgan hammlarning globallashuv davri, axborot asrida kuchayib borayotganligi real voqelikdan iboratdir.

Axborot xurujlarni uyushtirayotganlar qaysidir ma'noda o'z maqsadlariga erishayotganday. Buni biz yoshlarimizda ibo, hayo, oriyat, g'urur hamda oilaning muqaddasligi singari xalqimizning milliy axloqiy tamoyillari, milliy mentalitet va milliy irodasining eng yuksak qadriyatlariga nisbatan yuzaki munosabat shakillanayotgan yoshlarning safini ko'payib borayotganligidan ko'rishimiz mumkin. Eng achinarlisi shundaki, bunday salbiy illatlarning kirib kelishi yoshlar, hatto xalqimizning ayrim katta avlod vakillari ham erkinlik, demokratizm prinsiplari, deya qabul qilayotganliklari aynan, shu axborot xurujlarning ta'siri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, bunday muammolarning ildizini topish, ularning ta'sirini, salbiy oqibatlarini o'z vaqtida topish va bartaraf etmaslik jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar jarayondir.

Tabiiyki, bugungi kunda axborot xurujlarning avj olib borayotganligi, uning inson ongi va jamiyat tamadduniga o'tkazayotgan ta'siri borasida ko'plab faylasuf va jamiyatshunos olimlar izlanishlar olib bormoqdalar.Yurtimizda atoqli jamiyatshunos olim Narzulla Jo'rayev "Tarix falsafasining nazariy asoslari" kitobida: "... axborot xuruji tobora avj olib borayotgan, yakka tartibda har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan, keng miqyosda olganda jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirini hal qilishga qodir bo'lgan, global miqyosda esa butun insoniyat

³ З.М.Маруфов тахрири остида . Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: “Рус тили” нашрети, 1981. 340- б.

hayotini kafolatlaydigan, uning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilashga qodir bo'lgan tig'iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir"⁴,-deb yozadi.

Axborot xuruji jarayon sifatida jamiyatda mavjud uzoq tarixiy yillar davomida shakllangan qadriyatlar, ezgu g'oyalar va qarashlarga zid mafkuralarning millat, elat tanlamasdan inson ongini tobe qilishga qaratilgan, buzg'unchilik qilishga qodir bo'lgan informatsiyalarni qamrab oladi. Mohiyatan axborotlarning parametirlari va elementlarini tahlillar asosida tadqiq etish va o'rganish, ularga nisbatan aniq, ishonchli zarba berish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy makonda har bir jamiyat a'zosi doimiy ravishda qanchadan-qancha axborot (arabcha "axbor"- xabarlar, ma'lumotlar)ni qabul qiladi va ikkinchi bir axborot sub'ektiga yetkazishda vositachi bo'lishi tabiiy. Axborot almashinuv jarayoni axborotning sofligi, sifati va haqqoniyligi, ya'ni u jamiyat va insoniyat hayotiga ijobiy (konstruktiv) va salbiy (destruktiv) funksiyalarni bajarishi bilan xarakterlanadi.

Axborot xuruji ham axborot tahdidi ham abstrakt tushuncha emas, u qachonki o'zini agressiv xususiyatlarini namoyon qilishi bilan mavhumlikdan real voqeylikka aylanadi. Axborot xuruji va axborot tahdidlari real voqeylik sifatida yoshlarni ma'naviy qoloqlik va axloqiy tubanlikka undashi, ularning maqsad-muddaolari, orzu-intilishlaridan begonalashtirish, ideallaridan adashtirish bilan tafakkurida bo'shliqni hosil qilish orqali beboshlikni keltirib chiqarishga qaratilgan negativ informatsiyalardan iboratligi bilan xatarlidir.

Axborot xurujining xavfli jihati shundaki, bunday tahdidlar muholif sanalgan mamlakatlar yoki xalqlarga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, insonparvarlik va boshqa hamkorlik niqobi ostida amalga oshirilayotganlidir. Axborot xurujlarini uyushtirayotgan sub'ektlar o'zlariga muxolif sanalgan mamlakatlarni obro'sini tushurish yoki ularning taraqqiyotini yo'qqa chiqarish, jamoatchilik ongini o'ziga kerakli yo'nalishga solishga urunmoqdalar. Jarayonning xatarli tomoni shundaki, birinchi galda axborot xurujlari ta'siriga tortilayotgan mamlakatlar yoshlarining yolg'on axborot tarqatish (dezinformatsiyalash) va

⁴ Н.Жўраев. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: “Маънавият” нашрети, 2008. 425- б.

mo'ljallaridan adashtirish (dezoriyentatsiyalash) orqali jamiyatda barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan (destabilizatsiyalash) maqsadida ularning milliy axloqiy me'yorlariga zarba berishni nazarda tutuvchi axborotlar bilan egallashga harakat qilmoqdalar.

Globalashuv jarayonidagi arziyas bo'lib ko'ringan axborot xurujlari nafaqat milliy ma'naviy axloq me'yorlariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga, xalqlar va millatlarning turmush tarziga, diniy-axloqiy mezonlariga, ichki siyosiy tamoyillariga, ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Darhaqiqat, turli guruhlar, siyosiy tashkilotlar va davlatlar tomonidan tashkillashtirilayotgan axborot xurujlar negizida birinchi galda inson irodasiga, uning urf-odat va an'analari, diniy tamoyillari, bir so'z bilan aytganda milliy mentalitetning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi axloqiy me'zonlaridan begonalashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, axborot xurujlari muayyan guruh, siyosiy tashkilotlar targ'ib qilayotgan destruktiv buzg'unchi mafkuralar negizida shakllanib muayyan bir shaxs, ijtimoiy guruh, davlat hayotiga u yoki bu darajada ta'sir etish maqsadida uyushtirilmoqda. Bunday tahdidlarni ta'sir qilish darajasini pasaytirish maqsadida ularning tarkibini tahlil qilish, o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, axborot xurujlarining tarqalish doirasi, qamrovi keng bo'lib u siyosat, madaniyat, sport, iqtisodiyot, milliy o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy etiket tamoyillaridan tortib inson faoliyatining jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan barcha sohalarini qamrab oladigan kuchga ega bo'lgan xususiyatlari bilan boshqa tahdidlardan tub mohiyati bilan farq qiladi. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, axborot xuruji bu axborot hujumini uyushturuvchilarning maqsadlariga muvofiq rejalashtirilgan, aniq manzilga yo'naltirilgan, massiv, patensial, tezkor va to'xtovsiz ta'sir ko'rsatishga qaratilgan hujum deyishga barcha asoslarimiz mavjud.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, muloqot qilish, ma'lumot almashish jarayonini tezlashtirib yuborganligi ijobiy hodisa albatta. Ammo, ayrim guruhlar tomonidan axborot xurujlarini uyushtirayotgan negativ harakatlar tashvishlidir. Bunday tahdidlar atributlarida yoshlarning axloqini buzush, milliy axloq me'yorlaridan begonalashtirishga bo'lgan harakatlar kundan-kun kuchayib borayotganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Begonalashuv iborasi borasida “Falsafa ensiklopedik lug‘atda”: “Begonalashuv–ijtimoiy-falsafiy tushuncha; kishining jamiyatdan, uni boshqarishdan, o‘zi yaratgan munosabatlar va ob‘yektivlashtirilgan narsalardan chetlanganligini bildiruvchi ijtimoiy jarayon”,⁵-deb izox berilganligidan ko‘rinib turibdiki, insoniyat o‘zining evalutsiyasi davomida yaratgan munosabatlar va ob‘ektivlashtirilgan narsalardan chetlanganligi, tabiatni, borliqni o‘zlashtirish, o‘zgartirish natijasida yaratgan moddiy–ma’naviy boyliklari, madaniyati, qadriyatlari, milliy axloqiy tamoyillaridan begonalashtirishga qaratilgan tahdidlar, ayniqsa, diniy ekstremistik va boshqa buzg‘unchi guruhlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishish yo‘lida uyushtirayotgan axborot xurujlari yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilayotganligi globallashtirish davridagi murakkab jarayondir.

Axborot asrida milliy mentalitetimiz, urf-odat, analarimiz va axloqiy tamoyillarimizga zid bo‘lgan, axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan destruktiv axborotlar yani axborot xurujlaridan yosh avlodni saqlab qolish o‘ta dolzarb mafkuraviy jarayon sifatida namoyon qilmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlari ob‘yekt sifatida inson ma’naviyatining negizi va uning insoniyligini belgilovchi sifatlarni, har bir etnosning o‘ziga xos bo‘lgan axloqiy me‘zonlarini yemirishga qaratilgan etikologik muammolarni vujudga keltirmoqda.

Bir qarashda axborot xurujlarining axloqqa ta‘sirini bartaraf etishdan ko‘ra uni oldini olish har taraflama maqbul yechimdir. Shu ma’noda, aytishimiz mumkinki, axborot xurujlariga qarshi kurashda proflaktik targ‘ibot ishlarni bir zum ham susaytirmasdan bu yo‘lda ta‘lim-tarbiya uzviyligiga erishish asosida yoshlarning aql-zakovvatini, mustaqil fikr yuritish ijtimoiy faolligini oshirish orqali ma’naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlashga erishishda zamonaviy innovatsion vositalardan keng foydalanishni tavsiya etamiz.

Inovatsion texnologiyalar yuksalib borayotgan bugungi kunda axborotning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida nostandart usul va vositalar tanlanmoqda. O‘z o‘rnida bu nostandartlikdan ko‘zlangan maqsadga erishishning imtiyozi vazifasini bajarayapti. Soddaroq qilib aytganda, axborotning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Haqiqatdan ham bunday sodda usullarning innovatsion va axborot

⁵ Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010 йил, 343 бет.

komunikatsion vositalar bilan uyg'unlashuvi axborotning ta'sirchanligini ta'minlovchi omil bo'lib asosan yoshlarni o'z ta'siriga tortilayotganligidir.

Ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida hali shaxs bo'lib shakllanmagan yoshlarning axloqiga qarshi qaratilgan axborot xurujlarining mohiyatini anglamay, ularni yolg'on axborotlarga aldanib o'z mo'ljallaridan adashib xalqiga, mamlakati, dindoshiga qarshi xunrezliklar va buzg'unchiliklarni sodir etmoqdalar. Ana shunday salbiy xolatlarni oldini olishga qaratilgan aniq strategik rejalarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish konsepsiyasini yaratish zarur. Mazkur konsepsiya o'zida teran dunyoqarash, mustaqil fikrlash qobliyatini shakllangan, ma'naviy yuksak salohiyat va ma'rifiy yetuklik bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan vazifalarni amalga oshiruchi g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda axborot xurujlarini uyushtirish bilan xalqlarning ma'naviy birligi, axloqiy va diniy tamoyillariga rahna solishga, ularni mo'ljallaridan adashtirish, ijtimoiy taraqqiyotidan begonalashtirishga qaratilgan ekstremal harakatlarni amalga oshirayotgan guruhlarining mavjudligi, axborot xurujlariga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini doimiy takomillashtirib borishni taqoza etadi. Bunday proflaktik faoliyatni tashkil etishda asosiy e'tibor yoshlarning ongi va qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish va ularning ruhiyatiga singdirish, yot g'oya va mafkuralarga qarshi kuchli irodali shaxslarni kamol toptirish masalasi bugun milliylik doirasidan chiqib, umuminsoniylik kasb etib borayapti.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda yoshlarning tafakkurida yon-atrofdan bo'layotgan voqealarga, axborot xurujlariga nisbatan tanqidiy munosabat muhitini shakllantirish, dahldorlik hissi, ijtimoiy faolligi hamda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga ehtiyoj tug'iladi. Chunki, bunday tahdidlarning millat, xalq va mintaqa tanlamasligi masalasini murakkabligidan dalolatdir. Shunday ekan axborot xurujlari va tahdidlariga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini doimiy takomillashtirish hamda fuqarolarda tanqidiy nuqtai nazardan tahlil asosida yondashish qobiliyatini oshirib borishni ta'qoza etadi.

Ommaviy axborot vositalari va internet axborot xurujlarini uyushtirishning asosiy vositasi sifatida inson ongiga ta'sir ko'rsatishning quroli vazifasini bajarmoqda. Bugungi zamonaviy sharoitda ommaviy

axborot vositalari va internet insonlar, ayniqsa, yoshlarni idroki va ongiga ta'sir o'tkazish prinsiplari asosida yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi bilan axborot xurujining ta'sirchanligi tezligini ta'minlashning omiliga aylanib bormoqda. Demak, bunday xolatni oldini olish va uni ta'sirini tugatish yoki hech bo'lmaganda ta'sirchanlik doirasini imkon qadar kamaytirishning metodologiyasini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bunday metodologiya asosida inson ongi va qalbida, ayniqsa yoshlarda, axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish hamda milliy va umiminsoniy axloq tamoyillar asosida tarbiyalashga ehtiyoj ortib boradi.

Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, aholining 12-25 foizigina axborotni tanqidiy nuqtai nazardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa, olingan axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi.⁶

Demak, yoshlarni turli tahdid va xurujlardan saqlashda birinchidan, ularda tanqidiy tahlil asoslangan tafakkurni shakllantirishga qaratilgan proflaktik ishlarni amalga oshirish, ikkinchidan, bunday proflaktik ishlarni tashkil etishda asosiy e'tiborni yoshlarning ongi va qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, ularning ruhiyatiga singdirish, buzg'unchi mafkuralarga qarshi mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiyalash masalasi bugun milliylik doirasidan chiqib, umuminsoniylik kasb etib borayapti. Ijtimoiy munosabatlar subekti sifatida u qaysi etnos yoki elitaga mansub bo'lishidan qattiq nazar har bir yoshning tafakkurida yon-atrofdagi bo'layotgan voqea-jarayonlarga, axborot xurujlariga nisbatan tanqidiy tafakkur va murasasizlik muhitini qaror toptirish, dahldorlik hissini shakllantirish hamda ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga ehtiyoj tug'iladi.

Axborot xurujlari yoshlarning shaxs sifatida ijtimoiy takomiliga, ruhiyatiga ta'sirini ob'yektiv va sub'yektiv jihatlarini tushuntirish, ularda axborotlar ustida ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish orqali ularning ongu-tafakkurini o'zgartirishga erishish zarur. Nega deganda, inson tafakkurida ijtimoiy hayotga nisbatan qarashlari o'zgarmaguncha odamning o'zi ham o'zgarmaydi. Ana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib, jahon axborot maydonida axborot almashish oqimi tobora kengayib borayotgan davrda yoshlarning ongu-tafakkurini faqat zamon talablariga

⁶ Полякова Т.А. Правовой обеспечений информационной безопасности при построении информационного общества в России.-дисс.д.ю.н – Москва, 2008. – страница-170.

javob bermaydigan tamoyillar bilan o'rab-chirmab tashlash samarasizdir. Shunday ekan, yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan axborot xurujlaridan saqlashda, bugungi kun talablaridan kelib chiqib proflaktik ishlarni amalga oshirish orqali, axborot xurujlariga qarshi tahdidbardoshlik va axloqiy immunitetni shakllantirishga erishish zarur.

XULOSA

Bugungi kunda axborot oqimi tobora shiddatli tus olib borayotgan murakkab davrda yoshlarning ongu-tafakkurini zamon talablariga javob bermaydigan tamoyillar bilan o'rab-chirmab tashlashning foydalilik ko'rsatki darajasini yuqori deb aytish qiyin. Shunday ekan, profilaktik-targ'ibot ishlarini tashkil etishda innovatsion vosita va usullardan foydalanish yoshlarda axborot xurujlariga qarshi tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirishda o'zining natijadorligi bilan ajralib turadi. Chunki, yoshlarda tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirish axborot xurujlarining quyidagi:

birinchidan, Internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar yoki vositalar yordamida milliy ma'naviy-axloqiy tamoyillarga zid nosog'lom axborotlar bilan yoshlarning ongini zaharlash hamda ularni qalbini egallashga qaratilgan va bu yo'lda yosh avlodni tarbiyasiga, ularning axloqiga va tafakkuriga zarar yetkazishga yo'naltirilgan harakatlarning shiddatli tus olib borayotganligi;

ikkinchidan, axborot xurujini tashkil etuvchilarning millat va elat tanlamasligi, o'zlarining shaxsiy manfaatlarini boshqalarning manfaatlaridan ustunligini har qanday holatda ustun qo'yishning avj olayotganligi va bunda har qanday insoniylik tamoyillarini keskin ravishda inkor etish;

uchinchidan, muntazam asossiz informatsiyalarni tarqatish natijada kishi, ayniqsa, hali ongu-tafakkuri to'liq shakllanmagan yoshlarda befarqlik, loqaydlik kayfiyatini uyg'otish bilan axloqini buzish, zo'ravonlik, shavqatsizlik va hayosizlik illatlarini mujassam etgan, "ommaviy madaniyat" kabi xatarli ta'sirlardan saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelibchiqib, yoshlarni axborot xurujlarining ta'siriga tushib qolishidan saqlash maqsadida quyidagi:

birinchidan, axborot xurujlari va axborot tahdidlariga qarshi yoshlarda tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirish;

ikkinchidan, yoshlarni axborot tahdidlari va axborot xurujlarining ta'siriga berilib qolmaslik holatlarini oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarida abstrakt, dogmatik tamoyillardan voz kechishga zamonviy targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish;

uchinchidan, ommaviy axborot vositalarida jamiyatda yuzaga kelayotganda axborot tahdidlari haqidagi materiallarni muntazam e'lon

qilib borish va ularga tanqidiy munosabatini shakllantirish;

to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotidan tortib oily ta'limgacha bo'lgan barcha yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ushbu masala yuzasidan munosabatlar doirasi qamrovini yanada kengaytirish kabi tavsiyalarga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., O'zbekiston, 2017-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O'zbekiston, 2018-y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. T., O'zbekiston, 2019-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi.T., Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar № 19 (7521).

II. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2019-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni//Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., "Sharq" nashriyot matbaa konserni, 2020-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Pedagogika ensiklopediya. I-II-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.
2. Z.M. Marufofv tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati.- Moskva, "Rus tili" nasryoti, 1981-yil.
3. N. Jo'rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent, "Ma'naviyat" nashryoti, 2008-yil.
4. Полякова Т.А. Правовой обеспечений информационной безопасности при построении информационного общества в России.- дисс.д.ю.н – Москва, 2008. – страница-170.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
2. <http://www.giu.uz> – Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash

va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

4. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

5. <http://www.xs.uz>– “Xalq so‘zi” gazetasi sayti.

MUNDARIJA

Kirish	3
O'quvchi yoshlarga axborot xurujlari tushunchasini mazmun- mohiyatini o'rgatish masalalari	5
Xulosa.....	16
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	17

J.ORIPOV

**O'QUVCHI YOSHLARGA AXBOROT XURUJLARI TUSHUNCHASINI
MAZMUN-MOHIYATINI O'RGATISH MASALALARI**

(umumiy o'rta ta'lim maktablari tarbiya fani o'qituvchilari uchun
mo'ljallangan uslubiy ko'rsatma)

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,25 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma №22/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.